

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Huquqshunoslik fakulteti

«Umumiy huquqshunoslik» kafedrası

Nematov Jasurbek

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOTARIAT FAOLIYATINING
HUQUQIY ASOSLARI**

«5240100-Yurisprudensiya» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi»

Kafedra mudiri:
dots. G'ulomov A.

«_____»_____2012 y

Ilmiy rahbar: ass. Turaeva R.

«_____»_____2012 y.

Taqrizchi: dots. G'ulomov A.

«_____»_____2012 y

S A M A R Q A N D – 2012

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-5
I–bob. O‘zbekiston Respublikasida notariat idoralarini tashkil qilishning maqsad va vazifalari	
1-§. Notarial idoralarini tashkil qilishning asosiy maqsadlari.....	6-9
2-§. Notariuslar faoliyatining ayrim tamoyillari.....	10-14
3-§. Notarius lavozimini ta’ sis etish tartibi va vazifalari.....	15-29
4-§. Notariuslarning kasbiy tayyorgarligi.....	30-33
II –bob. Notariat idoralari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari	
1-§. O‘zbekiston Respublikasining notariat to‘g‘risidagi qonuni.....	34-39
2-§.Notarial harakatlarning ayrim turlarini amalga oshirish qoidalari.....	40-47
Xulosa.....	48-50
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	51-53

KIRISH

Tadqiqiot ishining yangiligi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mutaqillikka erishganidan keyin huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Jamiyatda qonuniylik va huquq tartibot fuqarolarning qonuniy hatti-harakatlari bilan barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonunlarga rioya qilishlari, ulardan to'g'ri foydalanishlari bilan o'rnatiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hiech bir xo'jalik yurituvchi subyekt, ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hiech bir mansabdor shaxs, hiech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas»¹.

Qonun ustuvorligini ta'minlashda notariuslarning, shu jumladan ayrim notarial harakatlarni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning ham o'z o'rni bor.

O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi Qonunning 1-moddasida ta'kidlanganidek, «O'zbekiston Respublikasida notariatning vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir»².

Notariuslarning va notarial harakatlarni amalgaoshiruvchi boshqa shaxslarning notarial faoliyatni amalga oshirishda qonun qoidalarga qat'iy rioya qilishlari fuqarolar va yuridik shaxslarning haq-huquqlarini himoya qilishgagina emas, balki mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Prezidentimizning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi»³da ijtimoiy-

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. Toshkent. O'zbekiston. 1996. 321-bet.

² F. Hamidov, S.Tog'ayev. O'zbekistonda notariat. Toshkent. Adolat. 1998. 5-bet.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2010.

siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy hayotimizda amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda sud huquq tizimidagi islohotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda qabul qilingan qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar notariuslar faoliyatini ham yanada kengaytirishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida notarial faoliyatni huquqiy jihatdan yanada mukammalroq tartibga solishni talab qildi.

Albatta, notariat-fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida jamiyatda muhim o'rin tutadi. Rivojlanib borayotgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda notariatning ahamiyati hamda roli ortib borayotganini e'tiborga olgan holda, notariatning huquqni muhofaza etuvchi organlar orasidagi o'rnini belgilash, huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan notariatning hamkorligini kuchaytirish, notarial tasdiqlangan bitimlarning huquqiy ahamiyatini to'g'ri talqin qilish, notarial faoliyatni kengroq o'rganish – bitiruv malakaviy ishi mavzusining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism: ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning birinchi bobida notarial idoralari tashkil qilishning maqsad va vazifalari, notarius faoliyatining ayrim tamoyillari, ikkinchi bobida esa notariat idoralari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari yoritilgan. Malakaviy ishning xulosasida notariat idoralari faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va mulohazalarni tavsiya qilmoqdamiz.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasida nashr etilgan jurnallar, gazetalar, darsliklardan foydalanildi. Jumladan, Sh.Sh.Shorahmedovning «O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi», M.X.Rustambayev va Ye.N.Nikifirovaning «Sud va huquqni muhofaza qilish organlari» kitobi, «O'zbekistonda notariat» kitoblaridan hamda notariat faoliyatiga oid qonun va boshqa me'yoriy hujjatlardan keng foydalanildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu olimlar va amaliyotchi xodimlar tomonidan ilmiy nuqtai nazardan tadqiqot obyekti sifatida o'rganib kelingan. Jumladan, M.Abdusalomov, M.X.Rustambayev, Sh.Sh.Shorahmetov,

I.B.Zokirov, S.Tog'ayev, F.Hamidov, D.Yakubova, Sh.Azimova, S.Sodiqovlarning ilmiy mulohazalari e'tiborlidir.

Tadqiqotning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining metodologik va nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mustaqil o'zbek davlati va milliy huquqiy tizimi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, milliy istiqlol mafkurasi, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, sud-huquq tizimidagi islohotlarni takomillashtirish borasidagi fundamental asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida mamlakatimizda rivojlanib borayotgan fuqarolik huquqi munosabatlarni tartibga solishda notariat organlarining ahamiyati hamda roli ortib borayotganini e'tiborga olgan holda, notariatning huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasidagi o'rnini belgilash, ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, notarial tasdiqlangan bitimlarning huquqiy ahamiyatini to'g'ri talqin qilish, notariat faoliyatni kengroq o'rganish bilan bog'liq munosabatlar huquq nuqtai nazaridan tahlil qilib beriladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati – tadqiqotda keltirilgan takliflardan fuqarolik huquqi, fuqarolik prosessual huquqi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, notariat faoliyati bilan shug'ulanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism: ikki bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOTARIAT IDORALARINI TASHKIL QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1-§. Notarial idoralarini tashkil qilishning asosiy maqsadlari

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan turli mulkchilik shakllariga asoslangan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar shakllana bordi, xususiy mulkdorlar paydo bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, mulkiy huquq va majburiyatlarni belgilovchi eng ishonchli barometr hisoblangan notariatga bo'lgan e'tiborning yanada oshishiga olib keldi.

Notariat ijtimoiy soha instituti sifatida juda qadimiy tarixga ega. U qadimgi Rim davlatida shakllanib rivojlana boshlagan. O'sha davrlardayoq qadimgi rimliklarda yozma farmoyishlar tayyorlab beradigan, sud jurnallarini yuritadigan va boshqa ommaviy huquqiy tarzdagi yozuvlarni qayd etib boruvchi maxsus mansabdor shaxslar bo'lganligi tarixdan ma'lum.

«Notarius» - lotincha «notta» so'zidan olingan bo'lib, yozib qo'yuvchi, qayd etuvchi ma'nosini anglatadi.

Har qanday jamiyatda davlatning fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlash majburiyatini kafolatlash va bajarish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning alohida bir tizimi zarurki, uning maqsad va vazifalari ushbu prinsiplardan kelib chiqmog'i lozim. Ko'chmas mulklar, mulkiy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bitimlarni tasdiqlash, hujjat nusxalari va va ulardan ko'chirmalar, hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlash, vasiyatnoma va turli ishonchnomalarni tasdiqlash, mulk va meros huquqiga oid guvohnomalar berish ma'lum tartib-qoidalarini talab etadigan jarayon bo'lib, davlat vakolat bergan organ bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish ko'p jihatdan ular o'rtasida tuziladigan mulkiy xarakterdagi shartnomalarning to'g'ri rasmiylashtirilishi hamda tomonlar zimmasiga olgan

majburiyatini o'z vaqtida to'liq bajarishlariga bog'liq. Shu bois, mazkur shartnomalarning to'g'ri va belgilangan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilishi hamda ularning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlashda notarial idoralarning o'rni beqiyosdir.

Notarius fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Shu maqsadda u jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashishi, tomonlar taqdim etgan bitim loyihalarining mazmun mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi, ushbu bitimlar mazmuni tomonlarning asl maqsadiga mosligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi, amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlarini to'g'risida ularni ogohlantirishi, qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etishi shart.

Huquqni muhofaza etuvchi organlar orasida aholi eng ko'p va ixtiyoriy ravishda murojaat etadigan organ notariatdir.

O'zbekiston Respublikasi «Notariat to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida «O'zbekiston Respublikasida notariat qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga da'vat etilgan huquqiy institutdir¹» deyilgan.

Notariatning huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan bog'liqligini notarial harakatlarning mazmunidan ham ko'rishimiz mumkin.²

Notarial harakatlarning to'la ro'yxati bilan notariat to'g'risidagi qonunning beshinchi bobida berilgan bo'lib, bu faqatgina hammaga odat bo'lgan hujjatlarning haqiqiyligini tasdiqlash bo'lib qolmasdan, balki bitimlarni tasdiqlash, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish, mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni ta'qiqlab qo'yish, fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash, ijro xatlarini yozish va boshqa harakatlardan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasi «Notariat to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. «Adolat». 2010.3-bet.

² M.X.Rustambayev, Ye.N.Nikiforova. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari. Toshkent. TDYuI. 2007. 305-bet.

Barcha notarial harakatlar u yoki bu jihatiga ko'ra huquqni muhofaza qilish funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, shu xildagi funksiyalarni amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

Har bir notarial harakatni amalga oshirish jarayonini ma'lum ma'noda fuqarolik jarayoniga qiyoslasa bo'ladi. Notariat faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, notarius taqdim etilgan hujjatlarni qisqa muddatda huquqiy ekspertizadan o'tkazib, shu hujjatlar asosida notarial tasdiqlanishi lozim bo'lgan huquq va faktning nizosiz ekanligi, uning qonunlarga asoslanganligini aniqlashi, notarial harakatni amalga oshirishi, bu hujjatlar qonunlarga zid bo'lsa, notarial harakatni amalga oshirish rad etishi lozim. Notarial harakatni amalga oshirish rad etilganda, notarius manfaatdor tomonning talabiga ko'ra, asoslantirilgan rad etish qarorini chiqarib berishi kerak.

Notarius huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlardan, ularning mansabdor shaxslaridan farqli ravishda tugallangan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hujjat chiqaradi. Ya'ni, biror bir shaxsda ma'lum bir huquqning vujudga kelganligini, boshqa birida ma'lum bir majburiyatlar paydo bo'lish faktini tasdiqlaydi. Misol uchun, tergovchi tergov materiallari asosida ayblov xulosasini tayyorlab, uni tasdiqlash uchun prokurorga taqdim etadi, prokuror tasdiqlagan ayblov xulosasi, o'z navbatida, suda o'z tasdig'ini topishi, so'ng sud hukmi yoki qarorida aks etishi lozim.¹

Qonuniy kuchga kirgan sud hukmi (qarori) va amalga oshirilgan notarial harakat yuridik nuqtai nazardan, xususan, ijro etilishi majburiyligi bo'yicha bir xil ma'omga ega bo'lib, har ikkalasi yuzasidan norozi tomonlar sudga qonunda belgilangan tarzda murojaat qilish huquqiga ega.²

Notariatning yana bir o'zig xos jihati shundaki, uni birgalikdagi faoliyat desa ham bo'ladi. Chunki, konstitusion normalarga asosan, davlat o'zining fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya etish kabi vakolatlarini qonun asosida mutaxassis shaxsga – notariusga bergan. Ya'ni, notariusning o'z ism-

¹ O'zbekiston Respublikasining jinoyat prosessual kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2003.

² Huquq va burch. Jurnal // 2007. №1-2, 61-62-betlar.

familiyasi yozilgan shaxsiy muhri bo'lib, unga davlat gerbi tushirilgan. Shuningdek, boshqa lisenziyalashtirilgan faoliyat turlaridan notarial faoliyatning farqi bor: uning lisenziyasi respublikaning boshqa hududlarida qayta tasdiqdan o'tishi yoki ro'yxatga qo'yish jarayonisiz muddatsiz amal qiladi. Notarius amalga oshirgan notarial harakat asosida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hujjat ham chegara bilmaydi.

Ba'zi davlatlardan, jumladan Rossiyada notariusning Rossiya Federasiyasi nomidan notarial harakatni amalga oshirishi qonunda belgilab qo'yilgan.¹

O'zbekiston Respublikasida notariat faoliyatini – maxsus vakolat berilgan mansabdor shaxslar sifatida notariuslar va ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish huquqi berilgan mansabdor shaxslar fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

«Notariat» termini ko'p ma'noli bo'lib, bir vaqtning o'zida birinchidan, qonun doirasida notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati yuklatilgan mansabdor shaxslar va organlar sistemasini, ikkinchidan, notarial faoliyat tartibga solinadigan qonunchilik sohasini, uchinchidan, notarial faoliyat bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi qo'uv kursini bildiradi.

Notariat – nizosiz huquqlar va faktlarni mustahkamlash hamda tasdiqlashga qaratilgan huquqiy faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar sistemasidir.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasida notariatning vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishdan iborat.

¹ Savitskiy V.M. «Organizatsiya sudebnoy vlasti v Rossiyskoy Federatsii». Uchebnoye posobiye dlya vuzov. Moskva. Bek. 1996.

2-§. Notariuslar faoliyatining ayrim tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish ko'p jihatdan ular o'rtasida tuziladigan mulkiy xarakterdagi shartnomalarning to'g'ri rasmiylashtirilishi hamda tomonlar zimmasiga olgan majburiyatini o'z vaqtida to'liq bajarishlariga bog'liq. Shu bois, mazkur shartnomalarning to'g'ri va belgilangan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilishi hamda ularning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlashda notarial idoralarning o'rni beqiyosdir.

Notarius fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Shu maqsadda u jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashishi, ularning huquq va majburiyatlarini tomonlar taqdim etgan bitim loyihalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi, ushbu bitimlar mazmuni tomonlarning asl maqsadiga mosligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi, amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ularni ogohlantirishi, qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etishi shart.

Notarial harakatlar ijtimoiy, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishi nuqtai nazaridan jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakatimizda notariat faoliyati bilan bog'liq fuqaroviy-huquqiy munosabatlar mohiyati, xarakteri, muammolarini, notarial harakatlar subyektlarining huquq va burchlari, vakolatlari, sohaga oid huquqiy bilimlarni oshirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar, soha qonunchiligini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmoni bilan xususiy notariuslar faoliyati tugatildi. Bu esa, notarial idoralarining samarali tarmog'ini tuzish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2010 yil 5 maydagi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya vazirining maxsus buyrug'i qabul qilindi. Ushbu buyruq bilan davlat notarial idoralari tarmog'i va notariuslar soni tasdiqlandi. Shuningdek, 2010 yil mobaynida bajarilishi lozim bo'lgan aniq tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unda:

- jismoniy va yuridik shaxslar malakali yuridik yordam olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan davlat notarial idoralarida rasmiylashtirilayotgan notarial harakatlar yuzasidan undiriladigan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha kassalar ochish hamda to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish uchun hisob-kitob terminal iva nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlash;
- notarial harakatlar maxfiyligini, hujjatlar va arxiv materiallarining saqlanishini ta'minlash, shuningdek, yangi tashkil etilayotgan davlat notarial idoralari notariuslari va notarial arxiv xodimlarining kasbiy va umumiy bilimni yuksaltirish uchun Respublika yuristlar malakasini oshirish markazida o'qishini tashkil qilish kabi qator tadbirlarni amalga oshirish lozimligi belgilangan.

Hozirgi vaqtda yangi tashkil etilgan davlat notarial idoralaridagi notarius lavozimlariga tanlov o'tkazilish haqida markaziy va mahalliy gazetalarda e'lonlar berilgan.

Fuqarolar va yuridik shaxslar mafaatlari himoya qilish va ularga sifatli huquqiy yordam ko'rsatilishi zarurligini inobatga olib, ushbu tanlovlarda notarius lavozimiga halol va malakali, chuqur bilimga ega bo'lgan, mas'uliyatli shaxslarni o'tkazish va shu sohaga loyiq kadrlar bilan to'ldirish maqsad qilingan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2010 yil 5 maydagi

Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori¹ga binoan Qoraqalpog'iston Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida notarial arxivlar tashkil etilishi belgilangan. Ushbu arxivlarda xususiy notariuslarga va davlat notarial idoralariga tegishli arxiv hujjatlari saqlanadi, yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lumotnomalar va arxiv hujjatlari nusxalari beriladi. Bu esa, o'z navbatida, notarial idoralarning arxiv hujjatlarini olishda qulayliklar yaratadi. Hozir respublika bo'yicha 14 ta notarial arxivni tashkil etish choralari ko'rilmogda.

Farmon yuzasidan Adliya vazirining buyrug'iga binoan hududiy adliya boshqarmalari tomonidan ishchi guruhlar tuzilib, ular xususiy notariuslardagi o'n milliondan ortiq arxiv hujjatini qabul qilish va tegishli davlat notarial idoralariga topshirish ishlarini amalga oshirmogda. Darhaqiqat, davlat notariuslari va xususiy notariuslar rasmiylashtirgan notarial harakatlar bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan. Xususiy notariuslar mulkiy jihatdan mustaqil bo'lsa-da, ular rasmiylashtirgan notarial harakatlar va ularga oid barcha arxiv hujjatlari davlatga tegilidir. Bundan ko'rinib turibdiki, xususiy notariuslarning tugatilishi fuqarolarning ushbu notarial idoralarda rasmiylashtirgan notarial harakatlari bo'yicha muammo tug'dirmaydi.

2010 yil 5 maydagacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmoni chiqqunga qadar respublikada 566 ta notarial idora faoliyat yuritib kelgan. Ushbu farmonga ko'ra, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi 239 notarius faoliyati 2010 yil 15 maydan tugatilgan.

Xususiy notariuslar faoliyati tugatilgan bo'lsa-da, yuqoridagi farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 iyunda qabul qilingan 104-qarori bilan notarial okruglardagi ehtiyojni inobatga olib, qo'shimcha 220 ta davlat notarial idorasi va 229 ta notarius lavozimi tashkil etilib, respublika bo'yicha 738 nafarga yetkazildi².

¹ Xalq so'zi gazetasi. 2010 yil. 6 may.

² Huquq va burch. 2011 yil. №3.22-23-bet.

Faoliyat yuritayotgan davlat notarial idoralarining sharoiti yetarli darajada bo'lsa-da, hozirgi vaqtda yangi tashkil etilayotgan idoralarga xonalar ajratish bilan bir qatorda, barcha davlat notarial idoralarining moddiy-texnik bazasi qayta ko'rib chiqilmoqda.

Notarial faoliyatning takomillashtirilishi sohaga oid qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozimligini taqozo etmoqda. Shu maqsadda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga «Adliya organlari va muassasalari faoliyatining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi kiritildi. Unda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Oila, Soliq va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi, «Notariat to'g'risida»gi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Jumladan, «Notariat to'g'risida»gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartishda bo'lajak notariuslarga qo'yiladigan malaka talablari kuchaytirilib, yosh senzi belgilanmoqda, ya'ni yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar notarius bo'lishi va stajirovkani o'tash muddati kamida ikki yil qilib belgilanishi ko'zda tutildi. Shuningdek, lisenziyalash tizimi ham bekor qilinib, notariusning mas'uliyatini oshirish maqsadida qasamyod qilish tartibi ham joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, kadrlar tarkibini halol va malakali mutaxassislar bilan to'ldirish maqsadida notarius lavozimiga cheklashlar o'rnatilmoqda. Xususan, belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan, kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etgani uchun notarius, advokat, tergovchi, prokuror, sud'ya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati tugatilgan shaxslar notarius bo'lishi mumkin emasligi kabi normalar loyihaga kiritildi.

Notariusning fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha huquqlari

kengaytirildi. Jismoniy va yuridik shaxslar nomidan tegishli davlat organlariga mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek, hujjatlarning chet elda amal qilishi uchun mazkur organlar tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlarni olgan holda hujjatlarni legallashtirish uchun murojaat qilish huquqi shular jumlasidandir.

Fuqarolik kodeksiga kiritilayotgan asosiy o'zgarishlardan yana biri vorislik huquqiga taalluqlidir. Amaldagi Fuqarolik kodeksida merosni qabul qilish muddati cheklanmagan bo'lsa-da, merosni qabul qilishdan voz kechish muddati olti oy qilib belgilangan¹. Bu holat fuqarolarga ancha noqulayliklar tug'dirib, merosdan voz kechish huquqi merosni qabul qilish majburiyatiga aylanib qolgan edi. Kiritilayotgan o'zgartishlarga ko'ra, merosxo'rlar xohlagan vaqtda merosdan voz kechish huquqiga ega bo'ladi. Umuman olganda, merosni qabul qilish muddatsiz bo'lgani kabi, undan voz kechish ham muddatsiz bo'lishiga erishilmoqda.

Kiritilayotgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan huquqiy yordamning samaradorligi va sifatini oshirishga qaratilgani bilan ham e'tiborlidir. Mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi va ma'qullash uchun yuqori palataga jo'natildi.

Xullas, nazarda tutilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarning qonun hujjatlarida o'z ifodasini topishi qonunchiligimizning takomillashuviga, unda ko'rsatilgan talablarni hayotga tatbiq etish esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T. "Adolat". 2007.

3-§. Notarius lavozimini ta'sis etish tartibi va vazifalari

Mustaqillik yillari yurtimizda boshqa sohalarda bo'lgani kabi notariat tizimi uchun ham ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Notariat to'g'risida»gi qonun notariat sohasining rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Mazkur qonun talabiga ko'ra, mamlakatimizda notarius lavozimi Adliya vazirligi tomonidan ta'sis etiladi va tugatiladi (15-modda).

Shu o'rinda bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, Germaniyada notarius lavozimiga Germaniya fuqarosi bo'lgan, alohida akademik tayyorlovdan o'tgan, universitet yoxud boshqa bir oliy o'quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan, shuningdek, uch yil notarius asessori sifatida sinovdan o'tgan shaxsgina notarius lavozimida ishlashi mumkin. Shuningdek, notariuslar faoliyat boshlashdan avval sud oldida qasamyod qabul qiladilar. Bu holatni Fransiya tajribasida ham ko'rishimiz mumkin. Notarius tadbirkor emas, u shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko'rsatishga haqli emas (qonunning 7-moddasi), shuningdek, notariuslar soni ham qat'iy cheklangan. Agar notarius lavozimining soni keragidan ortiq bo'lsa, notarius qo'shimcha daromad manbaini izlashga majbur bo'ladi. Bu holda u g'ayriqonuniy notarial harakatlarni amalga oshirishi yoki notarial faoliyatga zid bo'lgan boshqa yo'llar bilan pul ishlab topishga urinishi mumkin.

Notarius lavozimlari sonining qat'iy tartibga solinishi notarial faoliyatda qonuniylikka rioya etilishini ta'minlash imkonini beradi. Notarius qonunni buzmaslikdan manfaatdor. Chunki qonunga zid bo'lgan har qanday harakat uning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Notarius qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, u Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmasi qaroriga binoan lisenziyadan mahrum etilishi, shuningdek, sud qaroriga muvofiq notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Bu juda muhim omil. Chunki shaxsiy manfaatsiz qonuniylikka va axloq qoidalariga qat'iy rioya etilishiga erishish oson emas. Agar odam o'z lavozimini qadrlasa, u o'z

harakatlarini qo'rqqanidan emas, balki vijdon amriga ko'ra amalga oshirib, qonuniylikka rioya etilishini ta'minlaydi.

Notariusni lavozimiga tayinlash bilan bir qatorda, notariusga berilayotgan vakolatlarni aniq ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. «Notariat to'g'risida»gi qonunga muvofiq, notariusga muayyan hududda (okrugda) notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatlarini berish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning topshirig'iga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi yoki tegishli adliya boshqarmasi tomonidan lisenziyasi bo'lgan shaxslar orasidan tanlov asosida amalga oshiriladi (15-modda). Shunday qilib, notariusga tegishli vakolatlarni adliya idorasi tanlov asosida beradi. Tanlov o'tkazish tartibini Adliya vazirligi belgilaydi.

Tanlovda ishtirok etishga oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius huzurida bir yil stajirovka o'tagan (stajirovka muddati uch yillik yuridik mutaxassislik stajiga ega bo'lgan shaxslar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining qarori bilan 6 oydan kam bo'lmagan muddatga qisqartirilishi mumkin), malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qo'yiladi.

Lisenziya olgan, lekin uch yil mobaynida notarius lavozimida ishlamagan shaxslar, «Notariat to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida ko'rsatib o'tilganidek, malaka imtihonini qayta topshirganidan keyingina tanlovda ishtirok etishi mumkin¹. Notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyaga ega bo'lgan, Adliya vazirligi va adliya boshqarmalarining bevosita notariat ishiga rahbarlik qilish bilan bog'liq vazifalarda, masalan, mutaxassis yoki maslahatchi lavozimlarida faoliyat yurituvchi xodimlar malaka imtihonini qayta topshirishi shart emas. Yuqoridagiga qo'shimcha tarzda notariat arxivining xodimlari, shuningdek, notariat sohasida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan

¹ O'zbekiston Respublikasining Notariat to'risidagi Qonuni. Toshkent. "Adolat". 2010.

va notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyaga ega bo'lgan shaxslar ham malaka imtihonini qayta topshirishi shart emas, deb hisoblaymiz.

Tanlov Adliya vazirligi hay'atining 2005 yil 12 noyabrdagi 35-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Muayyan hududda (notarial okrugda) notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatlarini berish bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizom asosida Adliya vazirligi yoki uning topshirig'iga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari qoshida tuzilgan malaka komissiyasi tomonidan o'tkaziladi¹. Tegishli adliya boshqarmasi notarius lavozimi bo'shagan yoki qo'shimcha notarius lavozimi ta'sis etilgan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmay markaziy va mahalliy gazetalarda, shuningdek, qo'shimcha ravishda markaziy va mahalliy televideniya, radio hamda internet orqali tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon beradi. Tanlovni o'tkazish uchun adliya idorasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan komissiyalar to'g'risidagi nizomlarga muvofiq tanlov komissiyasini tajribali amaliyotchi notariuslar, adliya xodimlaridan, notarial palata tuzilgan bo'lsa, uning rahbari ham ki-ritilgan 5 nafardan 9 nafar kishiga qadar tarkibda, uch yillik vakolat muddati bilan tashkil etadi. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarni taqdim etishning oxirgi sanasi, ya'ni ommaviy axborot vositalarida e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy o'tgach, tanlov komissiyasi besh kun ichida majlis o'tkazib, har bir nomzod tanlov komissiyasi majlisida muhokama qilinib, tanlovda ishtirok etishga qo'yish yoki rad etish masalasi hal qilinadi. Majlis yakunlariga ko'ra, shu kunning o'zida tanlov o'tkazish to'g'risida yoki tanlov o'tkazishga qayta e'lon berish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Tanlov komissiyasi talabgorlarning kasbiy tayyorgarligi va bilimini aniqlash maqsadida yozma-og'zaki tanlov o'tkazadi. Tanlov talabgorining javobi, Nizomga muvofiq, komissiya a'zolari tomonidan baholash byulletenida besh ballik tizimda baholanadi va maxsus qutiga yig'iladi. Ovoz berishda tanlov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina komissiya qarori haqiqiy hisoblanadi. So'ngra komissiya a'zolari orasidan uch kishidan iborat

¹ Huquq va burch. 2010 yil. №8. 33-34-bet.

hisoblash guruhi tuzilib, yakuniy ball chiqariladi va yuqori ball to'plagan talabgor g'olib deb topiladi. Ballar teng bo'lib qolsa, tanlov g'olibi ochiq ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi, agar yana teng bo'lsa, komissiya raisining xulosasi hal qiluvchi hisoblanadi. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi Nizomda agar bir nechta notariuslik lavozimiga joy bo'shagan bo'lsa, tanlov o'tkazish qanday tartibda olib borilishi yoki tanlov har bir joy uchun alohida o'tkaziladimi-yo'qmi, ko'rsatilmagan. Fikrimizcha, yuqoridagi harakatlarni birmuncha soddalashtirish mumkin. Masalan, tanlov majlisi to'liq stenogramмага yozib olinishi kerak. Komissiya majlisida ovoz berish yashirin bo'lib, tanlovda ishtirok etayotgan barcha shaxslarning familiyasi yashirin ovoz berish varaqasiga kiritilishi kerak. Tanlov komissiyasi a'zolari nomzodni ma'qullashi yoki unga qarshi ekanini yashirin ovoz berish varaqasidagi nomzodlarning familiyalarini qoldirish yoki o'chirib tashlash yo'li bilan ifodalaydi. Faqat OVOZ beruvchi yashirin ovoz berish varaqasidagi nomzodlardan bittasini qoldirishi kerak. Xisob komissiyasi har bir nomzod bo'yicha ovoz berish natijalarini e'lon qiladi. Komissiya a'zolarining ko'pchiligi, lekin kamida 5 foizi ovoz bergan nomzod saylangan, deb hisoblanadi¹. Agar tanlovni o'tkazish chog'ida ovozlar teng bo'lingan bo'lsa, tanlov komissiyasining raisi hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi. Tanlov komissiyasi ishining natijalari adliya idorasi tomonidan tasdiqlanadi.

Nizomga muvofiq, tanlov o'tkazish bo'yicha komissiya majlisining bayonnomasi adliya idorasi tomonidan tasdiqlanadi va tanlov materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Tanlovda barcha xohlovchilar ishtirok etishlari mumkin. Ular tegishli adliya boshqarmasiga, komissiya nomiga ariza beradilar. Arizaga pasport nusxasi, belgilangan shaklda to'ldirilgan shaxsiy varaqa, mehnat daftarchasining notarial tasdiqlangan nusxasi, notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyaning notarial tasdiqlangan nusxasi, oxirgi ish joyidan tavsifnoma, malaka (apellyasiya) komissiyasi qarorining nusxasi, kasbiy tayyorgarlikni ta'riflovchi boshqa hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxasi taqdim etilishi lozim.

¹ Huquqshunos. Jurnal. 2010 yil. №2. 18-19-bet.

Da'vogarning xoxishiga ko'ra, arizaga ilmiy daraja to'g'risidagi diplom, ilmiy asarlar, maqolalar ro'yxati va boshqa xujjatlar ilova qilinadi. Talabgor o'z xoxishi bilan tanlovda ishtirok etishdan voz kechishi mumkin. Agar tanlov kuni talabgor sababsiz tanlovga kelmasa, u bir yil davomida keyingi tanlovlarga qo'yilmaydi. Komissiya qarorlari ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Tanlov g'olibini notariuslik lavozimiga tayinlash haqidagi adliya boshqarmasining buyrug'i malaka komissiyasi qarori ustidan apellyasiya komissiyasiga shikoyat berish muddati — o'n kun o'tgandan so'ng chiqariladi. Ushbu buyruqning nusxasi uch kun ichida Adliya vazirligiga yuboriladi.

Adliya vazirligi topshirig'iga ko'ra, tanlovning adliya boshqarmalarida o'tkazilishi bilan adliya boshqarmasi, Notariat, FXDYo va advokatura boshqarmasining mas'uliyati oshdi. Hozirgi kunda ushbu boshqarma advokatura hamda notariat va FXDYo bo'limidan iborat. Fikrimizcha, boshqarma tuzilishi uch bo'limdan iborat bo'lishi, notariat va FXDYo bo'limining alohida bo'limlarga ajratilishi, notariat bo'limiga notariuslik lavozimini ta'sis etish bo'yicha qo'shimcha yetakchi maslahatchi shtati ochilishi yuklatilgan vazifalarni to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xalqaro Lotin Notariati Ittifoqiga a'zo 60 dan ziyod davlatlarda ham notariuslik lavozimiga tayinlash va undan ozod qilish tartiblari turlicha belgilangan bo'lib, bu Ittifoq, notarius lavozimiga har tomonlama yetuk kadrlarni tayinlash lozimligi haqidagi g'oyani ilgari suradi¹.

Mamlakatimizda ham notarius lavozimi o'ta mas'uliyatli hisoblangani uchun har tomonlama yetuk, fidoyi insonlar notarius lavozimini egallashlari kerak. Ba'zan amaliyotda notariuslar yetarlicha bilimga ega emasliklari sababli, ba'zi bir notarial xarakatni amalga oshirishdan bosh tortadilar, vaholanki, har bir fuqaro yoki yuridik shaxs notarial harakatlarni amalga oshirish uchun xohlagan notariusiga murojaat qilishga haqlidir (qonunning 37, 44, 51, 52, 59, 62, 63, 74, 82 va 93-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno). Shu sababli, fikrimizcha, xorijiy mamlakatlarning tajribasiga tayanib, notariuslik lavozimiga tay-

1

inlash tartibini takomillashtirish kerak. Notarius lavozimiga nafaqat oliy yuridik ma'lumotga ega, balki oliy yuridik dargohni imtiyozli tamomlagan shaxslar tayinlanishi lozim. Stajirovka muddati 2 yilga uzaytirilib, notarius lavozimiga talabgorlarni sinov davomida maxsus tayyorlov kurslarida o'qitish kerak. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius huzuridagi stajyor stajirovkaning, albatta, bir yilini davlat notarial idorasida o'tashi maqsadga muvofiq. Chunki ba'zi bir notarial xarakatlarni amalga oshirish xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius vakolatiga kirmaydi (qonunning 24-moddasi).

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan turli mulkchilik shakllariga asoslangan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar shakllana bordi, xususiy mulkdorlar paydo bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, mulkiy huquq va majburiyatlarni belgilovchi eng ishonchli hisoblangan notariatga bo'lgan e'tiborning yanada oshishiga olib keldi.

Notariat — fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida jamiyatda muhim o'rin tutadi. Rivojlanib borayotgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda notariatning ahamiyati hamda roli ortib borayotganini e'tiborga olgan holda, notariatni huquqiy fan, huquq tizimi sohasi sifatida tadqiq etish muhimdir. Shu ma'noda huquq tizimiga "notarial huquq va notarial jarayoni" tushunchasini kiritish va bu huquq sohasini kengroq tadqiq etish lozim. Buning uchun, avvalo, tizimli tartibda:

notariat faoliyatini tashkil etish (notariusning huquqiy maqomi, notarius lavozimini ta'sis etish va notarius vakolatlarini berish, notarius faoliyati yuzasidan nazorat, notariatga rahbarlik va hokazo)ni o'rganib chiqish va takomillashtirish;

notariusning kasbiy faoliyatini amalga oshirishi (notarial harakatlarni amalga oshirish, notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etish asoslari, notarius harakatlari yuzasidan sudga shikoyat keltirish)ni tahlil qilish va uni takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish;

notarius faoliyatida huquqni qo'llash amaliyoti mazmuni (notarial bitimlar va shartnomalar mazmuni, notarius faoliyati asosi sifatida moddiy huquq normalari)ni yanada kengroq ochib berish;

"O'zbekistonda notarial huquq va notarial jarayoni" o'quv majmuini ishlab
chiqish va bunda huquqning uch sohasi — ma'muriy,

fuqarolik va fuqarolik prosessi bilan bog'liq turli institutlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganib, uni kompleks o'quv predmeti sifatida bayon etish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda notarial faoliyatni kengroq o'rganish va uni takomillashtirish masalasi nechog'li dolzarb, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga quyidagi asoslarga tayanib javob berish mumkin.

Birinchidan, notariat ommaviy-huquqiy institut bo'lib, uning . faoliyat doirasi juda keng. Chunonchi, fuqarolik huquqiy munosabatlar va ularni tartibga solish masalalarida jamiyat a'zolarining keng qatlami notariat xizmatidan foydalanadi. Zero, amaliyotda muhim ahamiyatga molik bitimlar va boshqa hujjatlarni notarial tartibda tasdiqlash qonun doirasida belgilanmoqda. Shuning o'ziyoq ommaviy-huquqiy institut sifatida notariatga, notariuslarga jamiyat va davlatning ishonchi qanchalik yuqori ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, notariat fuqarolik huquqiy himoyaning asosiy tashkiliy shakllaridan biridir. Unga fuqarolik huquqining tarkibiy qismi deb qarash bilan birga, bugungi kunda bu sohani "notarial huquq va notarial jarayoni" sifatida kengroq o'rganish zarurati ham paydo bo'ldi. Bir qarashda oddiy ko'ringan ishonchnomalar, ularning huquqiy tabiati, tuzilish tartibi va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini har doim ham fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi, fuqaroviy subyektlar o'rtasidagi mulkiy-huquqiy hujjat sifatida qaramaymiz. Garchi, mol-mulkni sotish huquqi bilan berilgan ishonchnoma oldi-sotdi shartnomasi o'rnini bosmagan, ya'ni oldi-sotdi shartnomasi hisoblanmagan holda, ishonchnomaga asosan, ishonchli vakil ishonch bildiruvchiga tegishli bo'lgan, ishonchnomada ko'rsatilgan mol-mulkni sotib, sotuvdan tushgan pullarni mulk egasiga berishi nazarda tutilsa-da, aksariyat hollarda shu mazmundagi ishonchnomani berayotgan shaxs oldindan pul to'lovini olib, keyin oldi-sotdi munosabatlarini shartnoma bilan rasmiylashtiradi. Demak, notarial harakatlarning ishonchnoma singari huquqiy aktlarini chuqurroq tahlil etish ehtiyoji mavjud¹. Shuning uchun ham, notarial faoliyatga fuqarolik huquqining tarkibiy qismi

¹ Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. «Adolat.»2001. 268-bet.

sifatida qarash bilan cheklanmay, uni notarial huquq sohasi sifatida o'rganish va tavsiflash lozim. Qolaversa, notariatning huquqni muhofaza etuvchi organlar orasidagi o'rnini belgilash, huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan notariatning hamkorligini kuchaytirish, notarial tasdiqlangan bitimlarning huquqiy ahamiyatini to'g'ri talqin etish masalalarini kenfoq ochib berish darkor. Ma'lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning buzilgan huquqlarni tiklash, himoya qilish faoliyati va qonun targ'iboti faoliyati notariatning fuqarolarga u yoki bu huquqiy holat bo'yicha, ya'ni fuqaroviy huquqiy munosabatlar bo'yicha tegishli tushuntirishlar berish faoliyati bilan hamohangdir. Zero, notariatga nivosiz huquqlar va faktlarni mustahkamlash va tasdiqlashga qaratilgan

Ma'lumki, ko'pgina o'quv predmetlari ikki qismga, ya'ni umumiy va maxsus qismga bo'linadi. Umumiy qismga an'anaviy tarzda shu fan mohiyatini ochib beruvchi, uni butunlay qamrab oluvchi va ana shu predmetga muayyan aloqasi bo'lgan institutlar kiradi. Bu umumnazariy qoidalar instituti bo'lib, o'z asosini davlat va huquq nazariyasidan oladi. Xo'sh, "O'zbekistonda notarial huquq va notarial jarayoni" yuqoridagi tarzda umumiy va maxsus qismlarga bo'lib talqin etish mumkinmi? Bu borada notariat huquqning mustaqil sohasi emas, balki huquq sohasining turli institutlarini o'z ichiga olgan kompleks fan sohasi sifatidagi o'quv predmeti, degan fikr tarafdorlari bor. Shunga qaramay, "O'zbekistonda notarial huquq va notarial jarayoni" fanini ham moddiy, ham prosessual tarmoqlardan tashkil topgan, deyishga asos yetarli. Chunonchi, notariat faoliyatining tashkiliy asoslari, notariusning majburiyatlari, javobgarligi, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius faoliyatini sug'urta qilish, notarial harakatlar va notariuslar tomonidan ko'rsatilgan boshqa xizmatlar uchun haq to'lash, notarial faoliyatni mablag' bilan ta'minlash kabi notariusning maqomini, uning huquq va majburiyatlarini, davlatning notariatga rahbarligi maqomini belgilovchi normalar moddiy normalar bo'lsa, notarial ish yuritish hamda notarial harakatlar va ularni amalga oshirish qoidalari prosessual normalarni tashkil etadi. Demak, fikrimizcha, "O'zbekistonda notarial huquq va notarial jarayoni"ning tuzilishi ikki: moddiy va prosessual tarmoqdan iborat. Birinchisi notariatning tashkiliy-huquqiy asoslarini va

uning vakolatlarini qamrab olsa, ikkinchisi notarial ish yuritish, notarial harakatlar hamda ularni amalga oshirish qoidalarini o'z ichiga oladi. Yuqorida bayon etilgan mulohazalar borasida taklif va fikrlar bildirilsa, foydadan xoli bo'lmaydi, deb hisoblaymiz.

Notarius o'z faoliyatida fuqarolarning muomalaga layoqatligini, yuridik shaxslarning ham muomalaga layoqatini tekshiradi, shu jumladan mol-mulk oldi-sotdisi, ayirboshlash, hadya shartnomalarini, ishonchnomalarini, vasiyatnomalarini tasdiqlaydi, vasiyat va qonun bo'yicha vorislik guvohnomalarini, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalari va hokazo. Bularning barchasi, albatta, fuqarolik qonunchiligida mustahkamlagan qoidalar asosida amalga oshiriladi¹. Bevosita fuqarolik huquqi normalarini qo'llaydi.

Shuningdek, notarius fuqarolik prosessual normalarni ham qo'llaydi va o'zi ham fuqarolik prosessining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Lekin Fuqarolik prosessual kodeksida ishda ishtirok etuvchi shaxslar (33-modda) sifatida taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ko'rsatib o'tilgan².

Qayd etish joizki, amalda notariuslar ular harakati bilan bog'liq holatlar bo'yicha sud majlisida ishtirok etish uchun chaqirtiriladilar. Ammo har doim ham notariusning sud ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomi to'g'ri talqin qilinmaydi. Demak, fuqarolik prosessual huquqiga nafaqat umumiy yurisdiksiyadagi fuqarolik sudlarini, balki notariatni ham kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

Lekin hozir mavjud fuqarolik prosessi qonunchiligi buzilgan huquqlarning sud tartibidagi himoyasini targibga soladi va barcha normalar ana shunga qaratilgan. Fuqarolik prosessual kodeksida notarial harakatlar va ularni amalga oshirishga oid normalar bo'lmasa-da, fuqarolik prosessiga bag'ishlangan deyarli barcha darsliklarda notariat bo'limi borligini e'tirof etish kerak. Xususan, professor

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2009 yil.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2008 yil.

V. Yarkov notariatning fuqarolik proressidan ajralib chiqqanini aytib, notariatga mustaqil "kompleks huquq sohasi" sifatida qaragan¹.

Aytish mumkinki, notarius amal qiladigan proressual normalar fuqarolik proressual huquqi normalariga juda yaqin. Shu bois, notariatni fuqarolik fuqaroviy-huquqiy munosabat notarial idolar faoliyatining huquqiy tartibga solinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, avvalo, inson manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur yo'nalishda Yurtboshimiz qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo'llash amaliyotida g'oyat jiddiy o'zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida faqat qonunlarga rioya etilishini taminlash lozim ekanini alohida ta'kidlaydi.

Ma'lumki, Prezidentimizning 2010 yil 5 maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmoni bilan xususiy notariuslar faoliyati tugatilgan edi. Bu esa o'z-o'zidan notarial idoralarning samarali tarmog'ini tuzish va moddiy-texnik bazasini mustaxkamlashni taqozo etdi. Mazkur farmon bugungi notarial amaliyotda ayrim nuqsonlar mavjudligini yaqqol ko'rsatib berish bilan birga, ushbu sohadagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishda qaratilgan tub islohotlarni amalga oshnirishga imkon beradi. Shunga ko'ra, Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligining qator buyruqlari notariat soxasiga oid deyarli barcha normativ xujjatlarga o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, «Notarius faotiyatini tashkil etish tartibi» to'g'risidagi, «Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shaxar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari» to'g'risidagi, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi»

¹ «Huquq va burch» jurnali. 2009 yil. №1. 24-bet.

to'g'risidagi va «Notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi» to'g'risidagi nizomlar qabul qilindi.

«Notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi» to'g'risidagi nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish notariuslarning kasbini malakasini oshirish muddatlari, o'kishni tashkil etish va o'qish yakunida sinov topshirish tartiblari belgilandi. Shuningdek, sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan notarnusga belgilangan namunadagi sertifikat berish, sinovdan o'ta olmagan notariusga esa 3 oy muddatda takroran topshirish nazarda tutilgan. Agar notarius takroran sinovdan o'ta olmasa, uni egallab turgan lavozimiga munosib yoki munosib emasligi masalasi tegishli hududiy adliya organlari tomonidan ko'rib chiqishi ko'rsatildi. Shu asosda yanga tashkil etilayotgan notarial idoralar notariuslari va notarial arxiv xodimlarning kasbiy va umumiy bilimlarini oshirish maqsadida Respublika yuristlar malakasini oshirish markazida o'qitish tashkil etildi. Notariuslarning 5 yilda kamida bir marta malaka oshirishlari belgilandi. Bu bilan notarius bo'lib ishlamagan shaxslarga notarius amaliyotini chuqurroq o'zlashtirish, statistik hisobotlarni yuritish masalasiga e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari xuzurida notarial arxivlar tashkil etilib, ularda nafaqat davlat notarial idoralaridagi hujjatlar, balki ilgari faoliyat yuritgan xususiy notariuslarga tegishli arxiv hujjatlari ham saqlanadi. Bu yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lumotnoma va arxiv hujjatlari nusxasini olishda qulaylik yaratmoqda. Adliya Vazirligining buyrug'i bilan notariusning yordamchisi, stajyori, kotibi va arxivarius, kassir lavozimlari joriy etildi. Sohada amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlar notariuslardan o'z ishiga yuksak mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Shu maqsadda 2010 yil 28 dekabrda Vazirlar Maxkamasining «Notarius tomonidan o'z kasb majburiyatlari buzilishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risida»gi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur nizom «Notariat to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq notarius tomonidan o'z kasb majburiyatlari buzilishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplash tartibini belgilaydi. Ko'rinib turibdiki, bu meyor fuqarolar hamda korxona va tashkilotlar manfaatining to'liq muhofaza etilishini ta'minlaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zarar sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan qoplanadi. Notarius qo'pol xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygani aniqlangan hollarda davlat zarar qoplanishini talab qilishi mumkin. Bu esa soha xodimlari mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki yetkazilgan zararni xatoga yo'l qo'yan notarius hisobidan undirish tartibi ham nizomda belgilangan. Unga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxs o'ziga yetkazilgan zarar koplanishini talab qilish huquqiga ega. Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori zarar qoplanishi uchun asos hisoblanadi¹.

Yetkazilgan zararni qoplash maqsadida jamg'armadan mablag' ajratish uchun Qoraqalpog'iston Adliya vazirligi, viloyat, yoki Toshkent shahar adliya boshqarmasi sudning zararni qoplash to'g'risida qonuniy kuchga kirgan qarori adliya boshqarmasiga tushgandan keyin ikki kun muddatda jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga mazkur qarorni ilova qilgan holda buyurtmanoma kiritadi. Shundan keyin direksiya buyurtmanoma tushgan kundan boshlab ikki kun mobaynida ko'rsatilgan mablag'ni adliya boshqarmasining shaxsiy g'aznachilik hisob-raqamiga o'tkazib beradi. Mablag' kelib tushgan kundan boshlab bir kun ichida adliya boshqarmasi ushbu mablag'ni zararni qoplash uchup yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli hisob-raqamiga o'tkazib beradi.

Unutmaslik lozimki, sudning zararni qoplash to'g'risida qonuniy kuchga kirgan qarori asosida adliya boshqarmasi tomonidan notariusni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqilishi nizomda belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, adliya boshqarmasi tomonidan qoplangan summa keyinchalik aksincha talab (regress) tartibida notariusdan undirib olish lozim. Yuri-

¹ Hayot va qonun. 2001. №4. 19-20-bet.

dik va jismoniy shaxsga yetkazilgan zarar qoplangandan so'ng ikki kundan kechikmay adliya boshqarmasi notariusga aksincha talab (regress) bilan murojaat qiladi. Notarius yuridik va «Notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi» to'g'risidagi nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshilagi Yuristlar malakasini oshirish markazida notariuslarning kasbiy malakasini oshirish muddatlari, o'qishni tashkil etish va o'qish yakunida sinov topshirish tartiblari belgilandi.

Jismoniy shaxsga yetkazilgan zararni to'lash uchun adliya boshqarmasi qilgan xarajatni belgilangan tartibda ixtiyoriy ravshida qoplash huquqiga ega. Notarius tomonidan zararni qoplash adliya boshqarmasining shaxsiy g'aznachilik xisob-raqamiga pul mablag'lari kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Har qanday holatda ham zararining notarius tomonidan boshqa shaklda qoplanishiga yo'l qo'yilmaydi¹.

Mehnat kodeksining 207-moddasiga muvofiq², notariusdan o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan yetkazilgan zarar summasini undirish adliya boshqarmasi rahbarining buyrug'iga binoan amalga oshiriladi. Buyruq yuridik va jismoniy shaxsga yetkazilgan zarar adliya boshqarmasi tomonidan qoplangan kundan boshlab bir oydan kechikmay qabul qilinishi kerak. Notarius bilan mehnat shartnomasining tugatilishi uni zarar va tegishli xarajatlarni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi. Mazkur tartiblar notarial faoliyatni yuritayotgan notariusdan yuqori bilim, mehnat tajribasini va qonuniylik prinsipiga doimo amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi paytda notariat idoralariga qaratilayotgan e'tibor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan har qanday bitim va shartnomaning qonuniy asoslarga ega bo'lishiga, yuridik jihatdan mustahkamlashishiga, shuningdek, mamlakatimizda inson huquq va manfaatlari muhofazasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

¹ Huquq va burch. 2011. №3, 22-23-bet.

² O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2003 yil.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, notarius lavozimini ta'sis etish tizimini yanada takomillashtirish notarius lavozimida yuqori malakali huquqshunoslar faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Bu esa notariat faoliyatining taraqqiyoti, aholiga xizmat ko'rsatish darajasining oshishi, fuqarolar va yuridik shaxslar qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

4-§. Notariuslarning kasbiy tayyorgarligi

Bugungi kunda mamlakatimizda notariuslarning faoliyati kundan kunga ommalashib, rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga notarial idoralarning davlat organlari tizimidagi roli ham tobora ortib borayotir. Bu tabiiy hol albatta. Chunki hozirgi kun talabi - jamiyat hayotining keskin rivojlanishi, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tobora avj olishi hamda ular o'rtasida vujudga kelayotgan huquqiy munosabatlarni o'z vaqtida qonuniylashtirishga mas'ul bo'lgan notariuslardan juda katta mas'uliyat talab qilmokda. Zero notariuslik kasbi mamlakat huquqiy hayotida o'zining aloxida o'rniga ega ekanligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan notarial xarakatlar «Notariat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasida aniq belgilab berilgan¹. Aynan ushbu notarial harakatlarni amalga oshirish orkaligina fuqarolarning huquqlari ruyobga chiqariladi yoki aksincha.

Mamlakatimizda joriy yilning xozirgi kun xolatiga ko'ra jami 328 ta davlat notarial idoralari xamda 239 ta xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Notariuslarning shaxs manfaatlarini himoya qilish borasidagi faoliyati fuqarolik huquqlarini himoya qilishning muayyan usullaridan kelib chiqadi². Fuqarolik huquqlarini himoya qilish masalasida professor I.B.Zokirov bunday huquqlarni himoya qilishning umumiy va maxsus tartibi mavjudligini e'tirof etsa³, aksariyat rus olimlari ushbu kategoriyani tadqiq qilishda "himoya" tushunchasining o'zini tahlil qilish va undan kelib chiqish lozimligini ta'kidlaydilar.

Notarial faoliyatda shaxs huquqlarini himoya qilish bu huquq buzilishi bilan bevosita boliqdir. Shundan kelib chiqadiki, himoyalash huquq normasi buzilishiga qadar qo'llaniladigan majburiy xarakterdagi huquqiy ta'sir vositasidir. Bu esa amaldagi qonunchiligimizda belgilangan shaxs manfaatlarini himoyalashga qaratilgan huquqiy qoidalarda o'zining ifodasini topadi. Ya'ni, shaxs manfaatlarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, №2, 42-modda.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: «Adolat», 2009.

³ Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Darslik., T.: «Adolat», 1996 yil, 34-bet.

himoya qilishga qaratilgan amaldagi mamlakat qonunchiligining o'zi huquqni samarali himoya qilishning mexanizmlarini belgilaydi.

Yana bir e'tiborga molik holat shundan iboratki, huquqni himoya qilishga bo'lgan murojaat bu faqatgina huquqning buzilishi bilangina bog'liq emas. Bunga esa amaldagi fuqarolik qonunchiligimizda belgilangan fuqarolik huquqlarini tan olish g'oyasi misol bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasi fuqarolik huquqlarini himoya qilishning usullarini belgilab bergan bo'lib, uning birinchi qism birinchi bandida aynan "huquqni tan olish" fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida ta'kidlanadi¹. Da'voni tan olish an'anasi, buzilmagan huquqni himoya qilishni nazarda tutadi. Bu esa ko'pchilik hollarda huquqni himoya qilish vositasi sifatida nafaqat bahsli huquqiy munosabatga aniqlik kiritish bilan balki, da'vogarning buzilgan huquqini tiklashni xam belgilab beradi.

Sudda huquqni tan olish shaklidagi ishlar da'vo tartibida ko'riladigan ishlar sifatida qilinadi. Binobarin, sud tomonidan xar qanday buzilgan huquq bilan bog'liq ish ko'rilmasin, bular muqarrar ravishda nizoli huquqiy munosabat hisoblanadi.

Bizningcha notarial organlar ham huquqni tan olish orqali uning himoyasini amalga oshirish borasida davlat tomonidan vakolat berilgan organ sifatida maydonga chiqadi. Ammo, notarial organlar faqatgina tomonlar o'rtasida mavjud bo'lgan nizoli huquqiy munosabatlardagi huquqni tan olish funksiyasini amalga oshira olmaydilar. Shunga muvofiq ravishda ta'kidlash lozimki, himoyaga muhtoj bo'lgan huquqni inkor qilish bu huquqning buzilishi emas, balki u tasdiqlashni talab qiladigan notarial harakatning bir ko'rinishidir. Misol tariqasida notariusga nizosiz huquqni tasdiqlashni so'rab murojaat qilgan shaxs, o'ziga tegishli bo'lgan huquqdagi noaniqliklarni bartaraf qilishni ko'zlab, uni davlat tomonidan tan olishni va uni erkin amalga oshirishni ko'zlab harakat kiladi. Yoki bo'lmasa, vafot etgan erining turmush o'rtog'i uning vorislari meros to'g'risida talabni qo'yishidan avval umumiy mulkdagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvoxnoma berishni

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: «Adolat», 2009, 11-bet.

so'rab notariusga murojaat qiladi. Ushbu holatda nizosiz huquqni tasdiqlash barobarida notariuslar zarur yuridik faktlarni aniqlashga va ularni tekshirishga kirishadilar.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish shakllari xususida yuridik adabiyotlarda har xil yondoshuvlar mavjud. Ba'zi mualliflar buni shaxsning o'zi va tegishli davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir vositalarining yig'indisi sifatida e'tirof etsalar, ba'zilari faqatgina muayyan organlarning belgilangan tartibdagi huquqni himoya qilishga qaratilgan faoliyati deb baholaydilar. Shu bilan birga mamlakatimiz qonunchiligiga binoan huquqni himoya qilish shaklida uning davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan himoya qilinishidan tashqari har bir shaxsning o'z huquqlari himoyasini shaxsan o'zi faol tarzda amalga oshirish imkoniyatlari qonuniylashtirilgan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 13-moddasida "fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilishga yo'l qo'yiladi. Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish usullari huquqni buzishga mutanosib bo'lishi hamda huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi lozim¹.

Ko'pchilik olimlar fuqarolik huquqlarini notarial faoliyat orqali himoya qilish bu ma'muriy shakldagi himoya ekanligini ta'kidlaydilar. Notarial faoliyatga nisbatan bunday yondashuv nafaqat uning davlat boshqaruvi organi sifatidagi an'anaviy rivojlanish xususiyatidan kelib chiqadi balki, notariatga nisbatan zamonaviy yondashuv ham buni inkor qilmaydi". Bizning nazarimizda himoyaning notarial faoliyat shakli sifatida bunday tarzda tashkil qilinishi notariuslik lavozimining davlat tomonidan ta'sis etilishi va notarial organlarning adliya muassasalari rahnamoligidagi faoliyatidan kelib chiqadi.

Notariuslar shaxs manfaatlarini himoya qilishda munosib o'ringa ega ekan, ushbu soxa vakillarining kasbiy tayyorgarligi hamda huquqiy savodxonligi ham talab darajasida bo'lishi lozim. Bunda avvalo amaldagi qonunchiligimizga notariuslik kasbi uchun belgilangan malaka talablarini yanada takomillashtirishga

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: «Adolat», 2009.

qaratilgan hamda ularning muayyan muddatlarda malakasini oshirib borishlari tartibini o'rnatuvchi yangi normalarni kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Amaldagi qonunda notariuslarning malakasini oshirish tartibi hamda uning muddatlari borasida biron bir talab belgilanmagan. Birgina 2003 yil 7 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Notariat faoliyatini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 3-kichik bandida notariuslarni o'qitish haqida qisqacha so'z boradi¹. Ammo bugungi kunga qadar notariuslarning malaka oshirish kurslarini tashkil etish xamda ularni amalga oshirishning tegishli qoidalarini belgilab beruvchi talablar ishlab chiqilmagan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek notariuslar notarial faoliyatni amalga oshirish borasida taraflar o'rtasida kelgusidagi huquq buzilishlarning oldini olishdek muhim profilaktik vazifani amalga oshirar ekanlar, ularning kasbiy tayyorgarligi darajasi xam shunga mos bo'lishi talab etiladi. Agar statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish Markazida 2008 yil davomida jami 112 ta notariuslar malaka oshirganlar. Ushbu ko'rsatkich 2009 yilda 111 tani tashkil etgan. Tahlil qiladigan bo'lsak bugungi kunda mamlakatimizda qariyb 600 ga yaqin notariuslar faoliyat ko'rsatayotganligini, ulardan har yili 100 nafari malaka oshirayotganligini inobatga olsak, bunday holda har bir notariusning deyarli har 6 yilda bir marta malaka oshirishiga to'g'ri kelayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu holat esa bugungi tez va o'zgaruvchan sharoitda mazkur kasb egalarining zamonaviy ta'lim va taraqqiyotdan o'z vaqtida xabardor bo'lishiga hamda amaldagi qonunchilik talablaridan yetarli darajada foydalana olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda notariuslik kasbi egalarining malaka oshirish muddatlari va tartibini qonunchilikda aniq belgilash hamda ularni tizimli ravishda tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaymiz.

¹ «O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami», 2003y., №1, 1-modda.

II –BOB. NOTARIAT IDORALARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasining notariat to'g'risidagi qonuni

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha sohalar qatori notariatning ham huquqiy asosi shakllantirildi va ushbu soha qonunchiligi ham doimiy tarzda takomillashtirilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi «Notariat to'g'risida»gi Qonuni 1996 yil 26 dekabrda qabul qilinib, 1997 yil 1 martdan kuchga kiritilgan. Ushbu qonun 2 bo'lim, 17 bob, 93 moddadan iborat bo'lib, unga 2000 yil 15 dekabrda qonun bilan 15 moddasi 5-qismining 1-xatboshisiga, keyinchalik 2003 yil 25 apreldagi qonuni bilan 14, 15, 22 va 44-moddalariga, 2004 yil 24 fevraldagi qonun bilan 2-moddasi 3-qismiga, 2009 yil 22 sentyabrdagi qonun bilan 6, 8 moddalariga hamda 2010 yil 10 sentyabr qonuni bilan 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 21, 22, 23, 27, 28, 30, 37, 39, 53, 54, 59 moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu qonun bilan notariat to'g'risidagi qonundan 9, 20, 24, 25 moddalar chiqarildi. Qonunga qo'shimcha 2¹, 2², 3¹ moddalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni birinchi bo'limi – notariat faoliyatining tashkiliy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, bunda asosiy qoidalar; notarial idoralar tarmog'i, notarius lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish; notariusning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, hamda notariuslar faoliyatining moliyaviy ta'minoti 1-19-moddalarda ifodalangan.

Qonunga 2¹-moddasi – notarius yordamchisi va 2²-modda – notarius stajyori to'g'risidagi normalar kiritildi. 2¹-moddasiga ko'ra, yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius yordamchisi bo'lishi mumkin. Notarius yordamchisini ishga qabul qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, shuningdek viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Notarius yordamchisi notariusning topshirig'iga ko'ra notarial harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etishga, bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar loyihalarini tuzishga, hujjatlarning ko'chirma nusxalari va dublikatlarini, ulardan ko'chirmalarni tayyorlashga, shuningdek notarial harakatlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berishga haqlidir. Qonunda belgilanishicha quyidagi shaxslar notarial yordamchisi bo'lishi mumkin emas:

- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun notarius, advokat, tergovchi, prokuror, sud'ya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati belgilangan tartibda tugatilgan shaxslar.¹

Qonunga kiritilgan 2²-moddasida notarius stajyorini ishga qabul qilish tartibi, amalga oshirishga oid holatlar belgilangan.

Qonunga kiritilgan 3¹-moddasida malaka komissiyalarini tashkil qilish tartibi belgilangan. Malaka komissiyalari stajirovkadan o'tgan shaxslardan malaka imtihonlarini qabul qilish maqsadida tashkil etiladi.

Malaka komissiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalarining qarorlari bilan notariuslar hamda adliya organlarining boshqa xodimlari orasidan teng miqdorda tuziladi.

Notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risidagi masalani hal etish, notarius qasamyodini qabul qilish, malaka komissiyalarining qarorlari ustidan berilgan apellyasiyalarni ko'rib chiqish, shuningdek malaka komissiyalarining ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish uchun o'n bir kishidan iborat tarkibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. «Adolat». 2010. 4-bet.

Oliy malaka komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, Respublika Oliy sudining, Oliy xo'jalik sudining sud'yalari hamda adliya organlarining boshqa xodimlari, advokatura vakillari kiritilishi belgilangan.

Notariat to'g'risidagi qonunning uchinchi bobida notariusning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi belgilangan. Notarius o'ziga murojaat qilgan barcha shaxslar uchun qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirishi, bitim va arizalarning loyihalarini tuzish, hujjatlarning nusxalarini va ulardan ko'chirmalarni tayyorlash, notarial harakatlar to'g'risida tushuntirishlar berishi; yuridik va jismoniy shaxslardan tegishli zarur hujjatlarni talab qilib olishi va boshqa shu kabi huquqlarga ega.

Notarius qonunning 18-moddasiga binoan, qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etishi, agar fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligini aniqlagan taqdirda tegishli tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilish lozim.

Notarius o'z kasbiy majburiyatlarini buzganligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

Notariat to'g'risidagi qonun¹ning beshinchi bobi notarial harakatlar deb nomlanadi. Qonunning 23-moddasida notariuslarning qanday notarial harakatlarni amalga oshirishi belgilanadi. Jumladan, notarius, bitimlarni, vasiyatnomalarni, tasdiqlaydi, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi; merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi; hujjatlarni shahodatlaydi; pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi va boshqalar.

Qonunning oltinchi bobi – notarial harakatlarni amalga oshirish qoidalariga oid normalar berilgan bo'lib, bunda notarial harakatni amalga oshirish joyi, amalga oshirish va to'xtatib turish muddatlari, notarial harakatlarni amalga oshirishlarni rad etish boshqa holatlar mustahkamlangan.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. «Adolat». 2010. 15-bet.

Qonunning yettinchi bobi – bitimlarni tasdiqlash harakatlarini belgilashga bag'ishlangan bo'lsa, sakkizinchi bob – merosdan mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish, to'qqizinchi bob – er-xotinning umumiy mol-mulkdagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar berish, o'tkazishni ta'qiqlab qo'yish va ta'qiqni bekor qilish harakatlari mustahkamlangan.

Qonunning 62-moddasiga ko'ra – notarius er-xotinning yozma arizasiga muvofiq ulardan biriga yoki har ikkisiga nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnoma beradi.

Qonunning 63-moddasida¹ - xotinning biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkdagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma marhum erdan keyin xotinning yozma arizasiga ko'ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan berilib, merosni qabul qiluvchi merosxo'rlar bu xususda xabardor qilinishi belgilangan.

Qonunning o'ninchi bobi hujjatlar to'g'riligini shahodatlash, o'n birinchi bobi faktlarni tasdiqlash harakatlarini belgilab bergan.

Qonunning 69-moddasida – notarius fuqaroning tirik ekanligi faktini uning shaxsiy iltimosiga ko'ra va uning ishtirokida tasdiqlashi lozimligi belgilangan. Shu bilan birga notarius taqdim etgan fotosuratdagi shaxs shu fuqaroning aynan o'zi ekanligin ham tasdiqlashi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini topshirish va pul summolari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib olish tartibi qonunning o'n ikkinchi bobida mustahkamlangan.

Notariat to'g'risidagi qonunda notarius tomonidan ijro xatlarini yozish (13-bob) tartibi, hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olish va ularni qaytarib berish, shuningdek, xalqaro shartnomalar va chet el huquqi normalarining qo'llanishi bilan bog'liq bo'lgan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibiga ham alohida (16-17-boblar) e'tibor berilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. «Adolat». 2010. 37-bet.

Ma'lumki, qonunning 23-moddasida notariuslar amalga oshiradigan notarial harakatlar belgilab berilgan bo'lib, bularga:

- 1) bitimlarni tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishning ta'qiqlab qo'yadi va ta'qiqni bekor qiladi;
- 5) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi;
- 6) meros mmol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- 7) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi;
- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzoning haqiqiylikini shahodatlaydi;
- 10) ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoa beradi;
- 11) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 12) fuqaroning tirikligi faktini tasdiqlaydi;
- 13) fuqaroning fotosuratda aks etirilgan shaxs ekanligin tasdiqlaydi;
- 14) hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;
- 15) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
- 16) pul summolari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 17) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- 18) pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 19) ijro xatlarini yozadi;
- 20) veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
- 21) dengiz protestlarini amalga oshiradi;

22) notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko'chirmalarni beradi.

Notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan notarial harakatlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010 yil 30 martdagi 64-MH-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu yo'riqnoma besh bob, 384 banddan iborat bo'lib, notarial harakatlarni amalga oshirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

2- §. Notarial harakatlarning ayrim turlarini amalga oshirish qoidalari

O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi Qonuning 23-moddasiga muvofiq, notariuslar notarial shaklda tasdiqlanishi majburiy qilib qo'yilgan bitimlarni tasdiqlaydi. Tomonlarning xohishiga ko'ra notarius boshqa bitimlarni ham tasdiqlashi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mol-mulkni boshqa shaxsga va garovga (ipotekaga) qo'yish to'g'risidagi bitimlar boshqa shaxsga o'tkazilayotgan yoki garovga (ipotekaga) qo'yilayotgan mol-mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi va boshqa hujjatlar taqdim etilgan taqdirdagina tasdiqlanishi mumkin.

Bitimlarni tasdiqlashda hujjatlarning kseronusxasi uning asl nusxasi va dublikati o'rnini bosa olmaydi.

Notarius bitim ishtirokchisining muomala layoqatini aniqlash paytida shu bitim ishtirokchisining yoshini tasdiqlovchi hujjatni talab qiladi.

Notariusda bitim ishtirokchilaridan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z hatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyoxvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yadi deb hisoblash uchun asosi bo'lsada (shubha tug'dirsa), ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, bitimni tasdiqlashni kechiktiradi va sudning shu shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to'g'risidagi qarori bor-yo'qligini aniqlaydi¹.

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, Notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Notarius ushbu qarordan norozi tomonning sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2010 yil 30 martda tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma".

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo'lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs homiysining roziligini talab etadi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni 29-moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlardan tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishi mumkin. Bunday bitimlarni tuzishda ota-onaning har ikkisining roziligi talab qilinadi.

Vasiylik sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni Vasiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Bu qoidalar ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) tomonidan o'zlarining voyaga yetmagan bolalariga vasiylik, homiylik qiluvchilar sifatida tuziladigan bitimlarga ham tegishlidir.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar, Fuqarolik kodeksi 27-moddasining ikkinchi qismida sanab o'tilganlardan tashqari, bitimlarni o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday bitimlarni tuzishda ota-onaning har ikkisining roziligi talab qilinadi¹.

Homiylik sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Muomalaga layoqati cheklangan deb topilgan fuqaro bitimlarni homiyning roziligi bilangina amalga oshiradi.

Vasiy va homiy, ularning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari vasiylik va homiylikdagi shaxs bilan bitimlar tuzishga, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan vasiy yoki homiyning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari o'rtasidagi sud ishlarini yuritishda vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning vakili bo'lishga haqli emas.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, homiylik va vasiylik qiluvchilar qandaydir sabablarga ko'ra (xizmat safarida bo'lish, boshqa joyda yashashi va hokazo)

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2009 yil.

bitimni tasdiqlashga rozilik bera olmasalar, bitim vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirokida tasdiqlanishi mumkin. Bu holda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining (bundan keyingi o'rinlarda Oila kodeksi deb yuritiladi) 184-moddasi talablariga rioya etiladi¹.

Bitimda voyaga yetmagan shaxs qatnashganda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan ushbu voyaga yetmagan shaxsning rasmi yelimlab yopishtirilgan ma'lumotnoma talab etiladi. Ushbu ma'lumotnomadagi rasm ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muhri bilan tasdiqlanadi.

Notarius bitimda ishtirok etayotgan yuridik shaxslarning huquq layoqatini tekshirish paytida yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari bilan tanishib chiqishi, shuningdek u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini hamda amalga oshirilayotgan notarial harakatlar ularning ta'sis hujjatlariga muvofiq yoki muvofiq emasligini tekshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining² 19-moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishlari mumkin.

Bitim vakil tomonidan tuzilgan taqdirda, uning vakolati ham tekshiriladi.

Vakilning vakolati uning nomiga berilgan ishonchnoma va (yoki) vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar (qaror, umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo) bilan tasdiqlanadi.

Bitimda yuridik shaxsning rahbari bevosita ishtirok etganda, bitimga yuridik shaxsning muhri xam qo'yiladi.

Notarius ta'sis hujjati bo'yicha bitimlar tuzish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslarning rahbarlaridan bitimlar va boshqa harakatlarni bajarish uchun

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2003 yil.

² O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun.

ishonchnoma talab qilmaydi. Bunday hollarda ularning mansab mavqeyini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Vakil tomonidan taqdim etilgan ishonchnoma shubha tug'dirgan taqdirda, notarius uni tasdiqlagan tegishli mansabdor shaxs (tashkilot) orqali tegishli ravishda tekshirishi lozim.

Mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitimni bekor qilish haqidagi bitim asosiy bitimga qo'shib qo'yiladigan alohida hujjat tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bitim predmeti ko'chmas mulk bo'lib davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda, «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasining uy-joyning texnik holati va qiymati to'g'risidagi belgilangan namunadagi ma'lumotnomasi (bundan keyingi o'rinlarda «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasining ma'lumotnomasi deb yuritiladi) talab qilinadi hamda ko'chmas mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi va xatlanmaganligi tekshiriladi.

Mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitimni bekor qilish paytida, bu bitim tegishli «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasida qayd etilgan yoki qayd etilmaganligidan qati nazar, notarius taraflarning o'zaro xohish-irodasi (arizasi) asosida bitimni bekor qilish to'g'risidagi alohida bitimni tasdiqlaydi. Arizalap reyestrda qayd etiladi. Agar bitimda bir taraf yoki ikkala taraf yuridik shaxs bitimni bekor qilish vaqtida yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab bitimni bekor qilish haqidagi qarori (umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyrug'i va hokazo) va yozma xati olinadi. Bitimning barcha nusxalariga va reyestrda bitim bekor qilinganligi yozib qo'yiladi hamda unga notariusning imzosi va muhri qo'yiladi.

Notarius bitimni haqiqiy emas deb topganligi to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ajrimi (bundan keyingi o'rinlarda sud hujjati deb yuritiladi)ni olgan taqdirda, bu haqda reyestrda va bitimning notarial idora yig'majildlarida saqlanadigan asl nusxasiga tegishli yozuv kiritadi, o'z imzosi va muhrini qo'yadi.

Notarius bitimni bekor qilish to'g'risidagi alohida bitimni tasdiqlaganidan keyin notarial idorada saqlanayotgan bitim predmetiga oid mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatning kseronusxasini qoldirib, asl nusxasini mulkdorga yoki uning merosxo'rlariga yoxud vakillariga qaytarib beradi.

Notarial idorada qolgan bitimning kseronusxasiga uning qaytarilganligi xaqida hujjatni olgan shaxs imzo qo'yadi. Bitimning asl nusxasi merosxo'rlarga berilgan taqdirda, ularning merosxo'r ekanligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar tekshiriladi va ularning kseronusxalari notarial idorada qoldiriladi.

Bitimlar bekor qilingan vaqtda to'langan davlat boji (tarif bo'yicha haq) qaytarilmaydi.

Soliq kodeksi 342-moddasining birinchi qismi 2-bandiga asosan notarial harakatlarni amalga oshirish rad etilgan vaqtda davlat boji (tarif buyicha xaq) qaytariladi¹.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitimlar, shuningdek ushbu bitimlarni bekor qilish to'g'risidagi bitim shu mulk joylashgan joydagi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasiga yoki Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlariga (bundan keyingi o'rinlar, DYHXX organlari deb yuritiladi) qayd etish uchun taqdim etilishi lozimligi haqidagi notarius tasdiqlovchi yozuvda taraflarga tushuntirganligi haqida ko'rsatib o'tadi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim qilingan bitimlariing loyihalari yoki notarial idorada tuziladigan bitim va arizalarning loyihalari qonun hujjatlariga zid bo'lmasligi lozim.

Bitimlarning matnida (tegishliligiga qarab):

u qanday bitim ekanligi (bitimning nomi);

bitimni tasdiqlagan notarial idora joylashgan yerning (pochta manziling to'liq nomi va notariusning ismi, familiyasi, otasining ismi;

bitim imzolangan sana so'zlar bilan qayd qilinishi, taraflarning familiyalar ismlari va otalarining ismlari to'liq yozilishi, doimiy ro'yxatga olingan manzillar

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T. "Adolat". 2007.

haqidagi, yuridik shaxslarning nomlari hyech bo'lmaganda bir marotaba to'liq yozilishi, hamda ularning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi va joylashgan yerlari (pochta manzili), shuningdek STIRi to'g'risidagi ma'lumotlar, taraflar qarindosh bulsa, ularning qarindoshlik darajasi;

bitim taraflaridan biri chet el fuqarosi bo'lsa, uning fuqaroligi;

bitim predmeti, uning tarkibi va tavsifi;

bitim predmeti uni boshqa shaxsga o'tkazuvchiga qaysi hujjatga asosan tegishli ekanligi va bu hujjatlarning kim tomonidan va qachon berilganligi yoki tasdiqlanganligi;

mulkka bo'lgan huquqni va u haqda tuziladigan bitimlarni ro'yxatda o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat haqidagi ma'lumot;

bitim predmeti boshqa shaxsga utkazilishi taqiqlanmaganligi va xatlanmaganligi;

bitim predmetining inventar qiymati va taraflar tomonidan kelishilgan baho;

bitim predmeti uchun haq to'lashning shakli va zarur hollarda muddatlari;

bitim predmetiga nisbatan uni oluvchida mulk huquqining vujudga kelishi;

bitim predmetiga nisbatan majburiyatlarni oluvchiga o'tishi yoki boshqa xolatlar;

taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra qonun hujjatlariga zid kelmaydigai huquq va majburiyatlarning o'tishi haqidagi boshqa shartlar;

bitim predmeti uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo'lganida, mazkur uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismida doimiy ro'yxatga olingan shaxslarning ro'yxatini ko'rsatgan holda, uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismidan foydalanish yoki ro'yxatdan o'tish muddati;

bitimda yuridik shaxsning rahbari ishtirok etsa, bitimga yuridik shaxsning muhri qo'yilishi;

er-xotinning mulkni nikohga qadar olganligini aniqlashda nikohning qachon va qaysi FXDYo bo'limida qayd etilganligi haqidagi yozuv;

bitim predmetiga nisbatan mulk huquqining o'tishi munosabati bilan qonun hujjatlari talablari tushuntirilganligi, bitim necha nusxada tuzilib imzolanganligi mulkka nisbatan mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozimligi;

bitimning mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan tushuntirilganligi va taraflarning asl maqsadiga muvofiq kelishi o'z aksini topishi kerak.

Bitimning barcha nusxalarini taraflar (ularning qonuniy vakillari, vasiy yoki homiylari) familiyalari, ismlari va otalarining ismlarini to'liq yozib shaxsan imzolaydilar.

Bitimning barcha nusxalariga notarius tegishli tasdiqlovchi yozuvni yozib, resstrga qayd qilingan tartib raqamini, undirilgan davlat boji (tarif bo'yicha haq) miqdorini ko'rsatib imzolaydi va muhrini qo'yadi.

Notarial tartibda tasdiqdanadigan bitim mazmuni bayon etilgan hujjat nusxalarining soni notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxslar tomonidan belgilanadi, lekin u bitimda qatnashuvchi tomonlar miqdoridan oshib ketmasligi kerak, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ma'lumki, uy kvartira yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha bitimlar mulk joylashgan hududdagi notarial idorada tasdiqlanadi. Agar uy, kvartira, uyning bir qismini oluvchi taraf xorijiy fuqarolar, shu jumladan, MDHga a'zo davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy, kvartira yoki kvartiraning bir qismini sotib olish, ayirboshlash yoki garovga qo'yish bitimlarni notarial tasdiqlash va keyinchalik ularni «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasida davlat ro'yxatidan o'tkazish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari tomonidan belgilangan tartibda berilgan yashash uchun ruxsatnoma taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2010 yil 30 martda tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma".

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida davlat notariuslari notarial harakatlarni amalga oshirish jarayonida amaldagi «Notariat to'g'risida»gi Qonun normalariga hamda Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilishlari lozim.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12

noyabrdagi qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi» deb nomlangan ma'ruzasida mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va mafaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish va huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishning hal qiluvchi vazifasi bo'lib kelayotganligi xususida to'xtalib o'tildi.

Albatta, inson va unga tegishli bo'lgan barcha daxlsiz huquqlarining oliy qadriyat hisoblanishi umuminsoniy tamoyillarga tayangan holda turli muhim huquqiy sohalar qatori notariat faoliyatini ham mukammal isloh etishni talab qilmoqda. Bu borada yurtboshimiz qonunchilik va normativ huquqiy bazadagi kamchiliklarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo'llash amaliyotida g'oyat jiddiy o'zgarishlarni joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida faqat qonunlarga rioya etilishini ta'minlash lozim ekanini alohida ta'kidlaydi¹.

Ma'lumki, Prezidentimizning 2010 yil 5 maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi farmoni bilan xususiy notariuslar faoliyati tugatildi. Bu esa o'z-o'zidan notarial idoralarning samarali tarmog'ini tuzish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni taqozo etdi. Mazkur farmon bugungi notarial amaliyotda ayrim nuqsonlar mavjudligini yaqqol ko'rsatib berish bilan birga ushbu sohadagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishga qaratilgan tub islohotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarori ijrosini ta'minlash

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2010.

maqsadida Adliya vazirligining qator buyruqlari qabul qilindi va notariat sohasiga oid deyarli barcha normativ hujjatlarga o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, «Notariuslik bazasini yanada takomillashtirishga qaratilgan tub isloxlarni amalga oshirishga yo'naltirilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligining qator buyruqlari qabul qilindi va notariat sohasiga oid deyarli barcha normativ hujjatlarga o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, «Notarius va notariuslar soni tasdiqlandi, kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Notarial idoralardagi sharoit yaxshilandi, moddiy-texnik bazasi qayta ko'rib chiqildi. Notarial harakatlar maxfiyligini ta'minlash maqsadida har bir notarius uchun alohida xona ajratilib, fuqarolarga malakali huquqiy yordam ko'rsatish uchun zarur qulayliklar yaratilayapti. Shu bilan birga, notariat harakatlar uchun undiriladigan to'lovlarni qabul qilish uchun bevosita notariat idoralar binosida kassalar ochish choralari ko'rilayapti, to'lovlarni bank plastik kartochkalari orqali qabul kilish uchun xisob-kitob terminali va nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda.

Notariat okruglardagi ehtiyojni inobatga olib, qo'shimcha 200 dan ortik, notarial idora va notariuslar lavozimi tashkil etilib, mazkur lavozimlarga tanlovlar o'tkazilmoqda.

«Notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi» to'g'risidagi nizomga asosan O'zbekistan Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida notariuslarning kasbiy malakasini oshirish muddatlari, o'qishni tashkil etish va o'qish yakunida sinov topshirish tartiblari belgilandi. Shuningdek, sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan notariusga belgilangan namunadagi sertifikat berish, sinovdan o'ta olmagan notariusga esa 3 oy muddatda takroran topshirish nazarda tutilgan. Agar notarius takroran sinovdan o'tolmasa, uni egallab turgan lavozimiga munosib yoki munosib emasligi masalasi tegishli hududiy adliya organlari tomonidan ko'rib chiqilishi ko'rsatildi.

Ushbu mavzuga oid huquqiy manbalarni o'rganish va amaliyot natijalarini tahlil qilishimiz asosida O'zbekiston Respublikasida notariat faoliyatini huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarimizni keltirishni lozim topdik.

1. "O'zbekiston Respublikasining notariat faoliyatini amalga oshirishning huquqiy kafolatlari» to'g'risida qonun qabul qilinishi zarur. Bu qonun notarial idoralarning moddiy-texnik bazasini qayta ko'rib chiqishga, fuqarolarga malakali huquqiy yordam ko'rsatish uchun zarur qulayliklar yaratishga asos bo'ladi.

2. Amalda notariuslik faoliyati bilan shug'ullanayotgan notariuslarning malaka oshirishini har uch yilda tashkillashtirishni lozim. Bu ularning o'z ustida muntazamishlashiga, qonun normalarini, ularga kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalarni, me'yoriy hujjatlarni mukammal o'rganishga asos bo'ladi.

3. Faoliyat ko'rsatayotgan barcha notarial idoralarda rasmiylashtirilayotgan notarial harakatlar yuzasidan undiriladigan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha bank plastik kartochkalari orqali hisob-kiobni amalga oshirishni joriy qilish lozim.

Xullas, nazarda tutilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarnig qonun hujjatlarida o'z ifodasini topishi qonunchiligimizning takomillashuviga, unda ko'rsatilgan talablarni hayotga to'g'ri tadbiq etish esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. Toshkent. O'zbekiston. 1996.
- 1.2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2010.
- 1.3. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir». Zarafshon gazetasi. 2010 yil 30 yanvar soni.
- 1.4. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Zarafshon gazetasi. №14. 2010 yil 2 fevral.
- 1.5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. «O'qituvchi». 2011 yil.

2. Huquqiy adabiyotlar

- 2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent. «O'zbekiston». 2009 yil.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2009 yil.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2008 yil.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat prosessual kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2009 yil.
- 2.5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2007 yil.
- 2.6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent. «Adolat». 2003 yil.
- 2.7. O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi qonuni. Toshkent. «Adolat». 2010 yil.

- 2.8. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonuni. 2007 yil.
- 2.9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 yil. №2.
- 2.10. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. 2003 yil. №1.
- 2.11. Sud hujjatlarini va boshqa organ hujjatlarini ijro etish to'g'risidani O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2001 yil 29 avgust.
- 2.12. O'zbekiston Respublikasida sud islohotlarini yanada rivojlantirish Dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Byulleteni, 1996 yil. №3-4.
- 2.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 maydagi «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Farmoni.
- 2.14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to'g'rsida»gi farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori.

3. Maxsus adabiyotlar

- 3.1. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik. Toshkent. «Adolat». 1996 yil.
- 3.2. Kolpina A.T., Maslayeva A.I. Grajdanskoye pravo. Chast 1. Izd. «Yurist».1997.
- 3.3. Pod.red. Ryasniyeva V.L. Grajdanskoye pravo. Chast 1. «Yuridicheskaya literatura». 1986.
- 3.4. Treushnikov M.K. uchebnik grajdanskogo prosessa. Spark. 1996.
- 3.5. Rustambayev M.X., Nikiforova Ye. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari. «Turon-Iqbol». 2007 yil.
- 3.6. Azizxo'jayev A. Mas'ul muharrir. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga sharh. Toshkent. «O'zbekiston».2008 yil.
- 3.7. Haqberdiyeva R. «Nikoh shartnomasi kerakmi?». «Hayot va qonun» jurnali. 2001 yil.№4.

- 3.8. Tog'ayev S. O'zbekistonda notariat. «Huquq va burch» jurnali. 2006 yil. №1-2.
- 3.9. Tog'ayev S. Notaraiat faoliyati: uni o'rganishni yanada takomillashtirish. «Huquq va burch» jurnali. 2009 yil. №1.
- 3.10. Azimova Sh. «Notarius bo'lish osonmi?». «Huquq va burch» jurnali. 2006 yil. №6-7.
- 3.11. Sodiqov S. Notarius javob beradi. «Huquq va burch» jurnali. 2009 yil. №1.
- 3.12. Safayev M. Notariuslar faoliyati: uning ayrim tamoyillari. «Huquq va burch» jurnali. 2008 yil. №6.
- 3.13. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. «Adolat.»2001.
- 3.14. Hamidov F., Tog'ayev S. O'zbekistonda notariat . Toshkent. «Adolat». 1998.
- 3.15. Yunusov B. Fuqarolik huquqiy majburiyatlar tizimida mol-mulkni ishonchli boshqarish. Davlat va huquq. 20104 yil. №4.

Elektron resurslar

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://Internet-law.ru>
3. <http://dissertstionl.narod.ru./avtorefeatsl>
4. <http://www.library.by/data>
5. <http://www.Lawportal.ru>
6. <http://www.Legislature.ru>